

QUR`ONI KARIMDA INSON QADRI VA UNING ULUG`LANISHI

Sultanova Hulkaroy Nodirbek qizi

O`zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik” yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Ilhomjon Bekmirzayev

Ilmiy rahbar: O`zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Ijtimoiy fanlar va huquq” kafedrasi professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18137385>

Annotatsiya: Maqolada islom dinida insonning irqi, millati, ranggi, dinidan qat`iy nazar qadr-qimmat, ulug`ligi va har bir inson muqaddasligi oyat va hadislarni dalil qilgan holda yoritib berdi. Maqola avval Qur`ondan mavzuga doir oyatlar olinib, lug`aviy tahlil qilindi va mavzuga aloqador muammolar o`rganildi. Ushbu muammolarga oyatdan xulasa chiqarilib, Payg`ambarimiz alayhissalomning sunnatlari bilan amal qilishlik ochib berildi.

Kalit so`zlar: Qur`on, sunnat, muqaddas, inson, xalifa, fitrat, qadr-qimmat, mukarramlilik, irqchilik, e`tiqod, kamsitish, bag`rikenglik.

Koinot, undagi yulduzlar-u sayyoralar, yer yuzidagi barcha hayvonot va nabototlar — bularning barchasi haq mo`jizalardir. Alloh taolo shu millionlagan mo`jizalar ichida insonni eng mukarram mavjudot qilib yaratdi. Uni Yerdagi xalifasi qilib tayinladi, O`z ruhidan jon puflab ulug`ladi, farishtalarni unga sajda qilishga amr qildi, O`zini tanitdi. Yuqorida aytib o`tilgan sabablar inson qanchalar muqaddas ekanligining dalilidir, chunki bunday sharafiga boshqa hech bir maxluqot muyassar bo`lgan emas.

Bugungi kunda insoniyat ilm-fanda ulkan yutuqlarga erishgan bo`lsa-da, “xalifalik” ruhidan uzoqlashgan holatlar ham ko`p: atrof-muhitga e`tiborsizlik, urushlar, ijtimoiy zulm, inson huquqlarining poymol etilishi. Bularning barchasi insonlar o`z vazifalari va qadr-qimmatini unutganligiga yorqin dalildir. Bu muammolarni tahlil qilish maqsadida ushbu maqolada Qur`on oyatlari va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari asosida insonning qanday yuksak maqomga ega ekani, u yaratilgan maqsad va uning muqaddasligi haqida fikr yuritiladi. Mavzu nafaqat diniy, balki ijtimoiy va axloqiy nuqtai nazardan ham dolzarb bo`lgani bois, uni o`rganish bugungi jamiyat uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Qur`oni Kariymda inson muqaddasligi bayoni

Inson yaratilishidagi e`tibor. Qur`oni Karimda kelgan ko`plab oyatlar ilohiy hikmat va zamonaviy fan uyg`unligini ko`rsatuvchi eng mo`jizaviy dalillar hisoblanadi. Ulardan biri – inson yaratilishining bosqichma-bosqich kechishi ochiq bayon etilgani. Mu`minun surasining 12–14-oyatlarida inson avval loydan,

so'ngra nutfa, alaq, mudg'a bosqichlaridan o'tib, nihoyat, bir mavjudotga aylanishi zikr qilinadi. Bu jarayon inson yaratilishining bejiz emas, balki buyuk hikmat bilan yuz berganini ko'rsatadi:

“Qasamki, batahqiq, insonni loy sulolasidan yaratdik. So'ngra uni mustahkam qarorgohda nutfa qildik. So'ngra nutfadan alaqqa yaratdik, alaqadan chaynalgan go'sht yaratdik, chaynalgan parcha go'shtdan suyak yaratdik, bas, suyakka go'sht qopladik, so'ngra uni boshqa bir jonzot etib paydo qildik. Bas, yaratuvchilarning eng yaxshisi Alloh barakotli va buyukdir”.

Ushbu yaratilish bosqichlari bayonida “inson” kalimasining umumiy shaklda ishlatilishi, Alloh taoloning e'tibori va yaratish amali butun insoniyatga teng qaratilganini anglatadi. Oyatlarda ma'lum bir ijtimoiy toifa, irq yoki millat emas, balki inson zotining o'zi markazga olinadi. Mazkur oyatlar inson qadr-qimmatining Qur'onda millat, irq yoki e'tiqod bilan emas, balki insonga xos fitrat bilan bog'lanib talqin qilinishini ko'rsatadi.

Inson surati. Yana Alloh taolo O'z kalomida insonni qanday suratda yaratganiga dalolat qilib bunday deydi: **“Batahqiq, insonni eng yaxshi suratda yaratdik”** (Tiyn surasi 4-oyat) ¹. Ushbu oyat insonning ulug'lanishini qisqa, ammo nihoyatda chuqur ma'no bilan ifoda etadi. Islom tafakkurida insonlar Alloh tomonidan eng yaxshi shaklda yaratilgan mavjudodlar yoki ushbu oyatda aytilganidek, “ahsani taqvim” (eng yaxshi surat) sifatida qabul qilinadi. Alloh insonni nafaqat jismonan go'zal, balki ruhiy, aqliy va axloqiy jihatdan ham mukammal holatda yaratganini bildiradi.

Shu oyatda yana boshqa dolzarb muammolar – mazah va diskriminatsiya keskin inkor qilinadi. Odamlar orasida bir-birini kamsitish uchun ularning tashqi ko'rinishi, yoki nutqi va fikridagi ba'zi “nuqson” deb sanaluvchi omillar sabab bo'ladi. Global miqyosda esa insonlarning rangi va irqi eng ulkan diskriminatsiyalarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ammo Alloh taolo oyatda “insonni eng go'zal suratda qildik” deyish barobarida ushbu muammolarga asos qoldirmaydi. Balki butun insoniyat yaratilish, xulq va ong jihatidan eng go'zal suratda yaratilganligiga tasdiq keltiradi.

Qadr-qimmat ustunligi. Qur'onda inson faqatgina surat jihatdan emas, balki siyrat jihatidan ham eng sharafli mavjudot sifatida ta'riflanadi. Uning yaratilish jarayoni, unga berilgan ne'matlar va maqomlar bu e'tiborni yaqqol ko'rsatadi. Alloh taolo insonni tuproqdan yaratar ekan, uni oddiy bir jonzot

¹ Tafsiri Hilol. . Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. – Toshkent. “Hilol Nashr”, 2018. – b 503

sifatida emas, balki bilim, tafakkur va mas'uliyat egasi bo'lgan ulug' mavjudot sifatida yaratdi. Bu haqda Qur'oni Karimda shunday marhamat qilinadi:

“Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo'ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O'zimiz yaratgan ko'p jonzotlardan afzal qilib qo'ydik”.² (Isro surasi 70-oyat).

Bu oyat insonning yuksak maqomini, unga berilgan imkoniyatlar va ustunliklarni ochib beradi. Alloh insonni tanlab, unga yer yuzida yashash, sayohat qilish, rizq topish imkoniyatlarini ato etgan. Bu oyatdagi “ aziz va mukarram qildik” jumlasidan shuni tushunsak bo'ladi-ki, inson asli fitratan hurmatga loyiq hisoblangani, aql, ruhiy kuch berilgani bilan aziz mavjudoddir. “Mukarram qilmoq” aslida “ikrom qilmoq” fe'lining orttirma va mubolag'a ma'nosini ifodalash uchun ishlatiladigan fe'l vazni hisoblanadi. Bundan tushunishimiz mumkinki, Alloh taolo bu bilan insonni cheksiz ikrom va ehtirom qilganini ifodalamoqchi, va shu ma'noga qo'shimcha ravishda bu jumla insonning hech qanday ehtiromga muhtoj emasligini, shundoq ham eng ehtiromli mavjudot sifatida yaratilganligini bildiradi.

Taassufki, so'ngi paytlarda musulmonlar orasida ham dini sabab o'zini o'zga din vakillaridan ustun ko'rish holatlari kuzatilmoqda. Bunday qarashlarni inkor qilib Alloh yuqoridagi oyatda butun insoniyatni cheksiz ikrom qilganini bayon qildi. Hattoki, inson o'ziga past baho berayotganda ham, avvalo, u Alloh eng mukarram qilib yaratgan mavjudotga nisbatan bu bahoni berayotganligin unutmasligi va shu maqomga mos ravishda harakat qilmog'I lozimligining yana bir tasdig'idir. Qisqa qilib aytganda, bu fazilat har qanday insonda – musulmon yoki g'ayri musulmon, boy yoki kambag'al, yosh yoki qari – tabiiy mavjud. Bu oyat insonning umumiy sharafiga ishora qiladi – bu sharafga faqat e'tiqodi uchun emas, balki inson bo'lgani uchun loyiqdir. Shu asosda Islomda irqchilik, millatchilik, kamsitish qat'iyan rad etiladi

Xalifalik maqomi. Qur'onda insonning yer yuzidagi maqomi nafaqat sharaf, balki javobgarlik bilan ham belgilanadi. Alloh taolo insonni bu dunyoda “xalifa”, ya'ni vakil, boshqaruvchi sifatida yaratgan. Bu maqom o'z-o'zidan emas, balki ulug' mas'uliyat, tafakkur, adolat va axloqiy komillik asosida berilgan. Bu borada shunday deyiladi:

“Esla, vaqtiki Robbing farishtalarga: Albatta, Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman”, dedi. “Unda fasod qiladigan, qon to'kadigan kimsani qilmoqchimisan? Holbuki, biz Senga tasbeh, hamd aytib va Seni ulug'lab

² Tafsiri Hilol. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. – Toshkent . : “Hilol Nashr”, 2018. – b. 33

turibmiz”, dedilar. (U Zot) “Men siz bilmaganni bilaman”, dedilar. (Baqara surasi 30-oyat)³

Savol tug‘iladiki: “Allohning yerdagi xalifasi” iborasi nimani anglatadi? Yuqoridagi oyatdagi “xalifa” so‘zini sharhlashda, bu so‘z aslida “o‘zidan oldin o‘tganlarning o‘rnini bosuvchi” yoki “ulardan keyin keluvchi” ma‘nosini anglatadi. Shu asosda, ba‘zi insonlar bu yerda “xalifa” so‘zini Alloh taoloning irodasini amalga oshirishda va Uning hukmlarini tatbiq etishda Allohning o‘rnini bosuvchi deb tushunishgan. Biroq bu Alloh ojiz yoki inson Allohning maqomiga ega degani emas. Alloh taolo bu tayinlov orqali insonni sinab ko‘rishni va unga hurmat ko‘rsatishni iroda qilgan.

Xulosa qilib aytganda, insonning yaratilish maqsadi Qur‘onda xalifalik va ibodat vazifalari orqali izohlanadi. Bu vazifa Alloh va Uning payg‘ambarlarining ko‘rsatmalariga muvofiq, Alloh tomonidan berilgan bilim va vakolatlar doirasida amalga oshirilishi kerak. Ya‘ni, xalifalik – bu hukmronlik emas, balki vazifa va xizmat demakdir. Inson bu dunyoda adolatni tiklashi, yerni obod qilishi, yomonlik va zulmga qarshi turishi, berilgan ne‘matlarni muhofaza qilishi, o‘zgalarga nisbatan rahm-shavqatli bo‘lishi, ilm va axloq orqali jamiyatni yuksaltirishi kerak. Islomga ko‘ra, haqiqiy xalifa — bu Allohdan qo‘rquv bilan ish tutuvchi, odamlar haqqiga rioya qiluvchi va yerni obod qiluvchi kishidir. Bunday insoniylik jamiyatni baraka, tinchlik va taraqqiyot sari yetaklaydi.

Inson muqaddasligiga ishora qilib, aynan yuqoridagi oyatlarni misol qilib keltirishimizning asosiy sababi shundaki, to‘rtala oyatda ham Alloh taolo aynan “inson” kalimasi bilan yuzlanmoqda. Ijtimoiy zulmlarning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan biror jamoatchilikka emas, balki butun insoniyatga murojaat qilmoqda.

Inson muqaddasligining sunnatdagi amaliy tasdig‘i

Qur‘oni karimda inson sha‘ning ulug‘ligi haqida bayon etilgan oyatlar nafaqat nazariy haqiqatlar, balki Rosululloh sollallohu alayhi vasallam hayotlarida amaliy jihatdan to‘liq namoyon bo‘lgan asosiy tamoyillardandir. U zot Qur‘onni faqat og‘zaki ta‘limot emas, balki hayotiy dastur sifatida ko‘rsatganlar. Inson sha‘nini ulug‘lash, har bir bandaga hurmat bilan qarash, zo‘ravonlikdan tiyilish, adolat va rahm-shafqat bilan muomala qilish — bular Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning kundalik hayotlarining ajralmas jihatlaridan bo‘lgan. Shu bois, Qur‘onda zikr etilgan “inson mukarram qilinishi”, “xalifa etib tanlanishi” va “eng go‘zal suratda yaratilishi” kabi oliy maqomlar Rosululloh sollallohu alayhi vasallam hayotiy faoliyatida o‘zining yorqin aksini topgan.

³ Tafsihi Hilol. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. – Toshkent . : “Hilol Nashr”, 2018. – b. 433

U zot hech qachon hech kimsani kamsitmaganlar, hattoki bir kun bir sahoba Bilol (r.a) ni irqalari sabab ranjitganida, Rosululloh solallohu alayhi vasallam: "Sen hali ham johiliyat odatlaridasanmi?" deya ogohlantirganlar. Bu hadis inson sha`nini qadrlash borasida va insonning "eng go'zal suratda" yaratilganligi yuzasidan Rosululloh solallohu alayhi vasallamning bizga qilgan o'gitlaridan biridir.

Bir badaviy masjidga kirib, bexosdan peshob qilib yuboradi. Sahobalar unga baqirishadi, uni haydab chiqarishga urinishadi. Shunda Rosululloh sollallohu alayhi vasallam ularni to'xtatib, aytadilar: "Uni qo'yib yuboringlar, so'ngra u joyga bir chelak suv quydinglar. Sizlar qiyinchilik tug'dirish uchun emas, osonlik keltirish uchun yuborildingiz" (Imom Buxoriy rivoyati). Bu voqeada Rosululloh sollallohu alayhi vasallam insonni "eng mukarram" mavjudot deb bilganlari ayon bo'ladi. Chunki u zot bu kishining bexabarligini tushunganlar, unga e'tibor bilan, g'azab emas, rahm bilan yondashganlar. Bunday muomala orqali insonda o'zgarish yuz beradi, qalb eshigi ochiladi. Bu — fitratga hurmat va hikmat bilan muomala qilish — islomiy tarbiyaning ildizi hisoblanadi.

Rosululloh solallohu alayhi vasallam insonlarni doim mas'uliyatga o'rgatganlar, ularning jamiyatdagi o'rnini qadrlaganlar. Har bir kishining o'z oila, jamiyat, yurt va ummat oldidagi javobgarligini uqtirganlar. Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: "Har biringiz rahbardir va qo'l ostidagilarga mas'uldir. Imom javobgardir va qo'l ostidagilarga mas'uldir. Er o'z ahliga javobgardir va qo'l ostidagilarga mas'uldir. Ayol erining uyiga va bolalari uchun javobgardir va qo'l ostidagilarga mas'uldir. Xodim xojasining mol-mulkiga javobgardir va qo'l ostidagilarga mas'uldir", - dedilar". Bu hadis "xalifalik" maqomining kundalik hayotdagi amaliy izohidir. Islomda "rahbar" degan so'z faqat davlat boshlig'i, imom yoki sarkarda degani emas. Bu hadisga ko'ra, har bir inson o'z holatida mas'ul shaxsdir degan xulosa olsak bo'ladi.

Bugun ham odamlar xato qiladi, to'g'ri yo'ldan adashadi. Ammo ularni so'kish, rad qilish, yo haydab chiqarish emas, balki tushunish, eshitish, sabr bilan yondashish orqali o'zgartirish mumkin. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam bizga aynan shuni o'rgatganlar. Insonni "mukarram" deb bilish — uni tuzatishdan umid uzmaslik, har qanday insonda yaxshilikni ko'rishga harakat qilishdir.

Inson — oddiy bir mavjudot emas, balki o'zida ilohiy e'tibor va ulug'likni mujassam qilgan zotdir. Qur'oni karimda bu haqiqat insonning mukarramligi, mas'uliyati va yaratilishdagi go'zalligi orqali ta'kidlanligi haqda so'z yuritildi. Rosululloh esa bu ilohiy haqiqatni amalda ko'rsatgan zotdirlar. U zot sollallohu

alayhi vasallam insonlarga faqat tashqi ko‘rinish yoki ijtimoiy mavqe bilan emas, qalb va fitrat darajasida yondashganlar. Kamsitmaslik, tushunish, bag‘rikenglik, imkon berish — u zotning har bir munosabatlarida mujassam bo‘lgan. Shu tariqa, Qur‘onda bayon qilingan inson qadr-qimmatini hayotga tatbiq qilingan va tirik namuna sifatida bizgacha yetib kelgan. Bugun bizga kerak bo‘lgan narsa — mana shu yondashuvni hayotimizga singdirishdir. Har bir insonni Alloh yaratgan, degan e‘tiqod bilan unga qarash; og‘ir bo‘lsa ham adolatli bo‘lish, oson bo‘lsa ham kamsitmaslik — bu haqiqiy musulmonlik mezonidir. Inson sha‘nini saqlash — ibodat kabi muqaddas burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2018
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2018
3. “Humans as Subjects and Objects of Education: Reflection from Surah At-Tin Verses 4-6” maqolasi.